



## KLASTER YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASI

*Xoshimova Muhayyo Salimjon qizi*

*Andijon Davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika psixologiya kafedrası*

*Pedagogika yo'nalishi magistranti.*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada klaster yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Klaster yondashuvining mohiyati va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda klaster tizimi orqali metodik yondashuvlar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, klaster yondashuvidan foydalanish pedagogik jarayonni takomillashtirish va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar:** klaster yondashuv, pedagogik faoliyat, ta'lim metodikasi, kompetensiya, innovatsion ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, integratsiyalashgan ta'lim, interfaol metodlar.*

Hozirgi ta'lim tizimi zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish orqali o'quv jarayonini takomillashtirishga intilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, klaster yondashuv pedagogik faoliyatga tayyorlashda samarali metodlardan biri sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv ta'limning uzviyligi va integratsiyalashgan holda tashkil etilishiga asoslanadi.

Klaster yondashuv – bu o'zaro bog'liq tarkibiy qismlar majmuasi bo'lib, u pedagogik faoliyatda tizimli integratsiyani ta'minlaydi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi va talabalarni mustaqil fikrlash hamda kasbiy tayyorgarliklarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq ob'ektga



yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim olovchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, Pedagogik ta'lim klasteri muayyan ijtimoiy-geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojini sifatli qondirish maqsadida bir-biri bilan o'zaro manfaatli aloqadagi teng huquqli alohida sub'yektlar, texnologiyalar va ishchi kuchlarining integratsiyalashuvini ta'minlovchi mexanizm hisoblanadi. Bundan tashqari, pedagogik ta'lim klasteri modeli ta'lim turlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni manfaatlar xususiyligi tamoyiliga muvofiq takomillashtirishni, pedagogik ta'limga targ'ibot ishlarini vorisiylik tamoyiliga muvofiq rivojlantirishni, ta'lim muassasalarida o'zaro nazoratga asoslangan hamkorlik shaklini qaror toptirishni nazarda tutadi.

Ta'lim klasteri o'zida nafaqat ta'lim turlari o'rtasidagi, balki fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyalashuv jarayonlarini, shuningdek, ta'limni boshqarish, ta'lim vositalari va shakllari bilan bog'liq sohalarni ham jamlaydi.

Klaster yondashuvi ta'lim berish, o'quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Bu esa muammoning umumiy metodologik xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Ayni paytda bu umumiy yo'nalishlar ta'limni boshqarish va tashkillashtirish, ta'lim turlari va yo'nalishlari, uzviylik va integratsiyani ta'minlash, o'qitish metodlari va vositalari kabi yo'nalishlarda xususiy metodologik xarakter kasb etadi.

Pedagogik ta'lim klasterining tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Tabiiy aloqadorlik tamoyili: klaster sub'yektlari o'rtasidagi hamkorlik, aloqadorlik masalasining tabiiyligi, ya'ni bog'liqlik masalasining hududiy, sohaviy yoki vazifaviy jihatdan ob'yektivligidir.
- Uzviylik va uzluksizlik tamoyili: klaster sub'yektlarining o'zaro bog'liqlikda zanjir hosil qilishi, zanjirni hosil qiluvchi har bir bo'g'in o'zining aniq vazifalariga ega ekanligi, uzluksizlik zanjirida bo'shliqlarga yo'l qo'yilmasligidir.



- Izchillik tamoyili: klaster sub'yektlarining vertikal yagona chiziq bo'ylab joylashuvi, bunda quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich harakatlanish tendensiyasiga amal qilinishidir.
- Vorisiylik tamoyili: klasterning avlodlar almashinuvidagi roli, tyutorlik faoliyati, pedagogik ta'limni klasterlashtirish natijasida sub'yektlarning malakali pedagog xodimlarga bo'lgan ehtiyojining muntazam qondirilishiga erishishdir.
- Yo'naltirilganlik tamoyili: klaster doirasida amalga oshirilayotgan har bir faoliyat turining aniq maqsadga yo'naltirilgani, kutilayotgan natijalarning oldindan pragnozlash va baholash imkoniyatining mavjudligidir.
- Zamonaviylik tamoyili: sohaga oid zamonaviy ilm-fan yutuqlarini tizimga joriy qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish.
- Maqsadning umumiyliigi tamoyili: klaster sub'yektlarining xususiy maqsadlaridan tashqari global aspektdagi yagona maqsad atrofida birlashuvi.
- Manfaatlarning xususiyliigi tamoyili: pedagogik ta'lim klasteri modelida har bir sub'yektning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan manfaatdor bo'lishi.
- O'zaro nazorat tamoyili: klaster modeli doirasida birlashgan ta'lim sub'yektlarining o'zaro yagona tizimni hosil qilishi va bu tizimning nuqsonsiz ishlashidan har bir sub'yektning manfaatdor ekanligi, ma'lum sub'yektda yo'l qo'yilgan xato yoki kamchilik boshqa sub'yektlarning faoliyat samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi, sub'yektlar faoliyatini o'zaro baholash tizimining yo'lga qo'yilishidan iborat.<sup>1</sup>

Klaster yondashuv asosida talabalarni tayyorlashda quyidagi bosqichlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Integratsion o'quv dasturlari: Fanlararo bog'liqlikni ta'minlash orqali o'quv dasturlarining yaxlitligi saqlanadi.

---

<sup>1</sup> Clark, R. E. (2009). Cognitive and Technology-Based Learning. Educational Psychologist, 44(2), 91-97.





2. Interfaol ta'lim metodlari: Talabalarning faolligini oshirish va pedagogik jarayonda ishtirokini kuchaytirish maqsadida rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar va loyihaviy ishlar tashkil etiladi.

3. Amaliyot va innovatsiyalar: Kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan mashg'ulotlar o'tkazilib, talabalar real muammolarni hal qilish bo'yicha mashg'ulotlarga jalb etiladi.

4. Refleksiya va baholash: Talabalar tomonidan o'z ustida ishlash, o'z-o'zini baholash va pedagogik faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Binobarin, ta'lim xodimi – eng avvalo, innovator „xavfsiz sinovlar o'tkazish“ psixologiyasining bilimdoni bo'lishi kerak.

Shu bilan birga, O'qituvchini ham innovatsion faoliyatga tayyorlash konsepsiyasini yaratishda o'qituvchi shaxsini shakllantirishning bir butun jarayonini loyihalashni va faoliyat olib borishini ta'minlovchi tizimli, refleksiv-faoliyatli, individual-ijodiy yondashuvlar amalga oshirish talab qiladi.

Masalan, tizimli yondashuv jihatdan -pedagogik ta'limning barcha bo'g'inlari innovatsion faoliyatning barcha komponentlarini ularning yaxlitligida yuzaga chiqishini maksimal darajada rag'batlantirishi kerak.

Refleksiv-faoliyatli yondashuvni amalga oshirish esa o'qituvchining o'z faoliyatiga nisbatan, faoliyat subyekti sifatida o'quvchi shaxsini rivojlantirish borasidagi samaradorligini tanqidiy tahlil etish, mulohaza qilish va uni baholash maqsadida o'ziga nisbatan ham faol tadqiqiy mavqeyiga kirishish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Individual-ijodiy yondashuv o'qituvchida ijodiy individuallikni aniqlash va shakllantirish, unda innovatsion ongni rivojlantirishni takrorlanmas faoliyat texnologiyasini ta'minlovchi shaxsiy darajaga olib chiqadi.

Ta'lim tizimida klaster yondashuvdan foydalanishni afzalliklari quydagilardan iborat:

1. Talabalarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.
2. O'quv jarayonining interfaolligini oshiradi.



3. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkonini beradi.
4. Ta'lim sifatini oshirishga va mustahkam bilimlar berishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Klaster yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash ularning kasbiy malakasini oshirishda samarali usul hisoblanadi. Mazkur metodika o'qitish jarayonida integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. Kelajakda ushbu yondashuvni rivojlantirish va amaliyotga keng tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Clark, R. E. (2009). Cognitive and Technology-Based Learning. Educational Psychologist, 44(2), 91-97.
4. Hasanboyeva, M. (2021). Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik metodlar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
5. Hasanboyeva, M. (2021). Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik metodlar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.